

TAJIQLAYMAN
O'ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI
REKTOR U.B.AZIZOV

**O'ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI
INNOVATSION JAMG'ARMA
NIZOMI**

TOSHKENT -2022

“TASDIQLANGAN”
Innovatsion Kengashining 2022 yil
10 yanvar 1-sonli yig'ilishining
Fm 1 -raqamli qarori asosida

**O'ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETINING
INNOVATSION JAMG'ARMA TO'G'RISIDA**
NIZOM
I. BOB. UMUMIY QOIDALAR

1. Ushbu Nizom O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 7-maydagi PQ-3698-son “Iqtisodiyot tarmoqlari va sohalariga innovatsiyalarni joriy etish mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida” gi Qarori, Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirining 2018-yil 5-iyuldagagi 593-son “Vazirlik tasarrufidagi oliy ta'lif muassasalarining innovatsion jamg'armasi to'g'risidagi namunaviy Nizomini tasdiqlash haqida”gi buyrug'iga muvofiq ishlab chiqilgan hamda Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligi O'zbekiston davlat jahon tillari universitetining innovatsion jamg'arma (bundan keyin – innovatsion jamg'arma)ni shakllantirish, boshqarish va uning mablag'laridan foydalanish tartibini belgilaydi.

2. Innovatsion jamg'arma universitetning innovatsion faoliyatini moddiy qo'llab-quvvatlashga yo'naltiriladigan mablag'larni akkumulyatsiyalaydi.
3. Innovatsion jamg'arma alohida budjetdan tashqari g'aznachilik hisob raqamiga ega bo'ladi.
4. Innovatsion jamg'arma oliy ta'lif muassasasi Innovatsion Kengashi (bundan keyin - Kengash) qarori bilan yuridik shaxs maqomisiz ta'sis qilinadi.
5. Mazkur Nizom talablari OO'MTV tuzilmasiga kirmaydigan OTM lar uchun tavsiya xarakteriga ega.

**II.BOB. INNOVATSION JAMG'ARMADAN FOYDALANISHNING ASOSIY
YO'NALISHLARI**

Innovatsion jamg'armadan foydalanishning asosiy yo'nalishlari:

- ilmiy-tadqiqotchilik infrastrukturasini shakllantirish va yangilash, xodimlarni moddiy rag'batlantirish;
- oliy ta'lif muassasalari ilmiy-innovatsion ishlanmalarini tijoratalashtirish bo'limi faoliyatini moliyalashtirish;
- ilmiy-laboratoriya jihozlari, sarflanadigan materiallar va butlovchi qismlarni xarid qilish;
- ilmiy innovatsion ishlanmalarini tijortalashtirish bo'limda tashkil etilgan markaz xodimlarga ishbay haq to'lash;

- istiqbolli ilmiy tadqiqot va innovatsion ishlanmalar mualliflarini rag‘batlash;
- tuzilgan shartnomalarni bajarilishida eng faol ishtirok etgan professor-o‘qituvchilar, xodimlarni rag‘batlantirish
 - amaliyatga joriy etilgan Startap loyihalar hamda eng ko‘p mablag’ topgan muallif va ishtirokechilarni rag‘batlantirish
 - istiqbolli innovatsion ishlanmalarini yaratgan hamda joriy etilgan hamda eng ko‘p mablag’ topgan mualliflarini moddiy rag‘batlantirish
 - innovatsion faoliyat bilan bog‘liq boshqa xarajatlarni amalga oshirish
 - OTM professor-o‘qituvchilari va doktorantlarining natijador ilmiy tadqiqot natijalarini xorijiy jurnallarda e’lon qilish bo‘yicha xarajatlarini kompensatsiyalash.

III. BOB. INNOVATSIONJAMG‘ARMA MABLAG‘LARI MANBALARI VA SHAKLLANTIRISH TARTIBI

6. Innovatsion fond mablag‘larini shakllantirishning asosiy manbalari:

- innovatsion faoliyat handa innovatsion mahsulotlarni tijoratlashtirishdan olinadigan daromad;
- to‘lov-shartnoma mablag‘laridan, oliy ta’lim muassasalarining ish haqi, stipendiyalarni to‘lashga, shuningdek, boshqa joriy xarajatlarini qoplanganidan keyin, 5 soizdan kam bo‘lmagan miqdordagi ajratmalar;
- xalqaro moliyaviy tashkilotlar va institutlarning grant va kreditlari;
- yuridik va jismoniy, jumladan, xorijiy shaxslarning xayriya mablag‘lari;
- qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa tushumlar.
- ta’lim xizmatlaridan tushadigan mablag‘lar.
- tarjim va tahrir xizmatlaridan tushadigan mablag‘lar.
- ilmiy-amaliy, fundamental, satartap va boshqa loyihalardan tushumlar.
- xalqaro moliyaviy tashkilotlar va institutlarning grant va kreditlari, yuridik va jismoniy shaxslarning xayriya mablag‘lari, shuningdek, qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa tushumlar jamg‘armaning tegishli hisob raqamiga kelib tushadi.

IV. BOB. INNOVATSION JAMG‘ARMANI BOSHQARISH

7. Innovatsion fondni boshqarishning oliy organi oliy ta’lim muassasasining rektori boshehilik qiladigan oliy ta’lim muassasasining maxsus tuzilgan Innovatsion kengashi (bundan keyin – Kengash) hisoblanadi. Kengash tarkibi nufuzli, jumladan, olim va mutaxassislar hisobidan shakllantiriladi. Kengash to‘g‘risida Nizom oliy ta’lim muassasasi rektori tomonidan tasdiqlanadi.

8. Kengashning vazifalari:

- innovatsion fond mablag‘lari hisobidan moliyalashtiriladigan innovatsion faoliyatning Kengash tomonidan tasdiqlangan ustuvor yo‘nalishlariga muvofiq innovatsion loyihalari tanlovini o‘tkazish tartibini belgilaydi;

- oly ta'lim muassasasi innovatsion faoliyati doirasida yaratilgan mualliflik huquqlari (patent), jumladan, xorijda rasmiy lashtirilgan mahsulot va xizmatlar, jumladan, intellektual mulk ob'yektlari ro'yxatini tasdiqlaydi;

- innovatsion mahsulotlarni tijoratlashtirishdan daromad, shuningdek, xorijiy investitsiyalar, grantlar va xayriya mablag'larini jalb qilishga ko'maklashadi;

- innovatsion fond faoliyati ustidan, daromadlarni shakllantirishning to'liqligi va Innovatsion fond mablag'laridan maqsadli foydalanish borasida, nazoratni amalga oshiradi;

- innovatsion fondni shakllantirish va mablag'laridan foydalanish bilan bog'liq boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

- ta'lim, tarjim va tahrir xizmatlaridan tushadigan mablag'lar ham mazkur jamg'armaga yo'naltiriladi.

9. Innovatsion jamg'armaning asosiy vazifalari quyidagilar hisoblanadi:

- innovatsion jamg'arma mablag'lari hisobidan moliyalashtiriladigan natijador ilmiy tadqiqtolar va innovatsion loyihamalar tanlovini tashkil qilish;

- ilmiy laboratoriyalarni moddiy-texnik ta'minlash (ilmiy-laboratoriya jihozlari, sarflanadigan material va butlovchi qismlarni xarid qilish);

- oly ta'lim muassasasi innovatsion faoliyati doirasida yaratilgan, mualliflik huquqlari (patent), jumladan, xorijda rasmiy lashtiriladigan mahsulot va xizmatlar, jumladan, intellektual mulk ob'yektlari ro'yxatini ishlab chiqish;

- tadqiqtchi va talabalarni saralash, ularning natijador ilmiy tadqiqtolar va tajribalar o'tkazish, jumladan, innovatsion loyihami realizatsiyalash uchun foydalaniladigan maxsus jihozlarda metodik ishlarni o'zlashtirish uchun yetakchi ilmiy va ishlab chiqarish, jumladan, xorijiy tashkilotlarda qisqa muddatli (1 oygacha) ilmiy stajirovka o'tashini tashkil qilish;

- innovatsion mahsulotlarni tijoratlashtirishdan daromadlar, shuningdek, xorijiy investitsiya, grant va xayriya mablag'larini jalb qilish;

- innovatsion jamg'arma mablag'larini ularni bank depozitlariga joylashtirish yo'li bilan boshqarish;

- innovatsion jamg'arma mablag'laridan maqsadli foydalanishning tizimli monitoringini olib borish.

10. Innovatsion jamg'arma har yili 1-dekabrgacha bo'lgan muddatda innovatsion jamgt'armaning keyingi kalendar yiliga daromad va xarajatlari prognoz parametrlarini ishlab chiqadi va Kengashga ko'rib chiqish uchun taqdim qiladi.

11. Innovatsion fondning daromad va xarajatlari prognoz parametrlari Kengash tomonidan har yili 25-dekabrgacha tasdiqlanadi.

V. BOB. INNOVATSION JAMG'ARMA MABLAG'LARIDAN FOYDALANISH TARTIBI

Innovatsion jamg'arma mablag'laridan foydalanish Kengashning:

- innovatsion jamg'arma mablag'lari hisobidan moliyalashtiriladigan ilmiy tadqiqtolar va innovatsion loyihamalar tanlovini o'tkazish yakunlari;

- oliv ta'lif muassasasi innovatsion faoliyati doirasida yaratilgan, mualliflik huquqlari (patent), jumladan, xorijda rasmiylashtiriladigan mahsulot va xizmatlar, jumladan, intellektual mulk ob'yektlari ro'yxatini tasdiqlash;

- tadqiqotchi va talabalarni ilmiy tadqiqotlar va tajribalar o'tkazish, jumladan, innovatsion loyihani realizatsiyalash uchun foydalaniladigan maxsus jihozlarda metodik ishlarni o'zlashtirish uchun yetakchi ilmiy va ishlab chiqarish, jumladan, xorijiy tashkilotlarda qisqa muddatli (1 oygacha) ilmiy stajirovka o'tash uchun tanlov asosida saralash yakunlari;

- ilmiy innovatsion ishlanmalarini tijortalashtirish bo'limda tashkil etilgan markaz xodimlarga ishbay haq to'lash, istiqbolli ilmiy tadqiqot va innovatsion ishlanmalar mualliflarini rag'batlash, tuzilgan shartnomalarni bajarilishida eng faol ishtirok etgan professor-o'qituvchilar, xodimlarni rag'batlantirish, amaliyotga joriy etilgan Startap loyihalar hamda eng ko'p mablag' topgan muallif va ishtirokchilarni rag'batlantirish istiqbolli innovatsion ishlanmalarni yaratgan hamda joriy etilgan hamda eng ko'p mablag' topgan mualliflarini moddiy rag'batlantirish universitet rektori buyrug'I asosida amalga oshiriladi.

- innovatsion jamg'arma xarajatlar smetasini o'rnatilgan tartibda tasdiqlash bo'yicha qarorlari asosida amalga oshiriladi.

12. Innovatsion loyihalarni bajarish uchun mablag' ajratishning sharti ularni kontrakt (shartnoma) da belgilangan muddatlarda 100% amalga oshirish hisoblanadi.

13. Innovatsion jamg'arma mablag'lari oliv ta'lif muassasasi ilmiy-innovatsion ishlanmalarni tijoratlashtirish bo'limi xodimlarini mablag' bilan ta'minlashga yo'naltirilishi mumkin.

14. Jihozlarni xarid qilish va innovatsion loyihalarni zarur saraflanadigan materiallar hamda butlovchi qismlar bilan ta'minlashni tashkil qilish oliv ta'lif muassasasi tomonidan o'rnatilgan tartibda amalga oshiriladi.

15. Ilmiy jihozlar, saraflanadigan materiallar va butlovchi mahsulotlardan maqsadli va samarali foydalanish uchun javobgarlik oliv ta'lif muassasasi rektori zimmasiga yuklatiladi.

16. Joriy moliya yili yakunlari bo'yicha jamg'arma mablag'lari qoldig'ini olishga yo'il qo'yilmaydi va ular keyingi yilga ko'chiriladi.

VI.BOB. INNOVATSION JAMG'ARMA MABLAG'LARIDAN FOYDALANISH

HISOBI VA NAZORATI

17. Innovatsion jamg'armaning buxgalterlik hisobini yuritish, shuningdek mablag'lar tushumi va foydalanishi bo'yicha hisobotlarni tuzish oliv ta'lif muassasasi buxgalteriyasi tomonidan qonunchilikda belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

18. Innovatsion jamg'arma mablag'lardan Kengash tomonidan tasdiqlangan xarajatlar smetasiga muvofiq maqsadli foydalanish uchun javobgarlik Innovatsion jamg'armaning ijrochi direktori zimmasiga yuklatiladi.

VII. BOB. YAKUNLOVCHI QOIDA

19. Innovatsion jamg‘armani tugatish va qayta tashkil qilish qonunchilikka muvofiq amalga oshiriladi.

Ushbu Nizom 2022 yil 10 yanvar Innovatsion Kengashi 1-sonli yig‘ilishi J-mi qarori bilan ma’qullangan.

Nizomni shakllantirishda ishtirokchilar:

Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor: G.X.Bakiyeva G.X.Bakiyeva

Ilmiy innovatsion ishlanmalarни tijoratlashtirish: F.S.Abdullayeva F.S.Abdullayeva